

## Badiiy Asarlarda Ranglar Jilosi

Sayfulloyeva Gulobod Faxriddinovna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti magistranti

**Annotatsiya:** San'at asarlari o'zlarining rang-barang jilosi, turli ranglari bilan o'z go'zalligini namoyish etadi. Bu jihatda, san'atning bir turi bo'lmish badiiy adabiyot ham rang bildiruvchi sifat orqali kitobxonlarga estetik va psixologik ta'sir eta oladi. Ushbu maqolada Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi misolida rang bildiruvchi sifatlarning matndagi ramziy ma'nolari, maxsus funksiyalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ramz, badiiy adabiyot, sifat, Said Ahmad, rang bildiruvchi sifatlar, "Qorako'z Majnun".

### Kirish.

Insoniyat yaralganidan buyon san'at va madaniyatga ehtiyoj sezadi. Albatta bu san'at simvollar va ramzlarsiz bo'lmaydi. Ramz (arab. — ishora qilmoq) — voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usulidir. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlarni ifodalashda ranglar alohida ahamiyat kasb etadi. Rang tushunchasi juda murakkab bo'lib, o'tgan asrlarda olimlar unga turlicha ta'rif berishgan. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun "Rangning tabiati shaffoflik bo'lib, u yorug'lik mahsuli. Rang faqat nur bor yerda ko'rinib, qorong'ulikda mavjud emas. Nurni oq, qorong'ulikni qora rang deb bilsak, demak asosiy ranglar oq va qora", — deb o'z fikrini bildirgan. Qadimdan xalqlarda ranglarga bo'lgan munosabat turlicha bo'lib, ba'zi ranglarda o'ziga xos ramziy ma'nolarni ko'rganlar. Yer yuzida necha xil rang bor? Abu Rayhon Beruniy o'zining "Minerologiya" asarida 200 dan ortiq ranglarning nomlarini sanab o'tganlar va bu ranglarning kelib chiqishini ham yozib qoldirganlar. Uyg'onish davrining yirik rassomi Leonardo da Vinchi "Rangtasvir haqida traktat" kitobida yetakchi ranglar sifatida olti rangni belgilab, birinchilardan bo'lib quyidagi ranglarning ramziy ma'no bildirishini aytib o'tadi: oq — yorug'lik, sariq — yer, yashil — suv, ko'k — havo, qizil — olov, qora — tun. Qadimiy dinlarda, xususan, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham ranglar bilan bog'liq qarashlar mavjud. Avestoda ranglarning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi va zardushtiylik dinining asosiy tamoyillarini, xususan, yaxshilik va yovuzlik orasidagi kurashni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi.<sup>1</sup> Jumladan, oq rang oliy ma'bud Axuramazda in'om etgan ezgulik timsoli, olovrang esa baloqazolarni daf etuvchi xaloskorlik ramzini bildirsa, qora rang —yovuz Axrimanning gumashtalari bo'lmish zulm tilsimotlari sifatida tasvirlanadi.

### Materiallar.

"Injil" sahifalarida ham ma'lum tushunchalar ranglar orqali ramziy izohlanganiga duch kelishimiz mumkin. Xususan, 4 asosiy hayotiy unsurlar: yer — oq, dengiz — binafsharang, havo — ko'k, olov — qizg'ish ranglarda ta'riflangan. Buyuk yunon olimi Aristotel falsafasi ham shuni takrorlaydi. "Bibliya" sahifalarda ayrim tushunchalar ranglar orqali ramziy izohlangan. Jumladan, oltin rangi o'limni, kumushrang g'amni, bronza rangi sudni, binafsharang hokimiyatni, qizg'ishrang esa

<sup>1</sup> <https://palacowa-aleja.pl/BWvzroTtNe/>

qurbonlikni anglatadi. Qolaversa, ushbu kitobda ayrim tushunchalar aynan keltirilmasdan, ranglar orqali istiora qilingan. Masalan, qizil rang — urush va qonxo`rlik; qora — zulm va g`am; oq — poklik va haqiqat; yashil — salomatlik va tirilish; binafsharang — hokimiyat va faxr tushunchalari o`rnida qo`llaniladi.<sup>2</sup> Ranglarning ushbu ramziy ma`nolari bugungi kunda ham aksariyat G`arb mamlakatlari bayroq va gerblarida shu mazmunni ifodalab kelmoqda.

Muqaddas islom dinida ham ranglar va ularning ramziy ma`nolari alohida o`rganilishi mumkin bo`lgan mavzu sanaladi. Tirik insonlar, hayvonlarni tasvirlash taqiqlangan davrlarda ham miniatyura, binolar peshtoqlari, amaliy san`at asarlaridagi ranglar ham o`z o`rnida ma`lum vazifani bajarish uchun foydalanilgan. “Quron`i Karim” da buyuk falsafada ta`kidlanganidek, butun borliq, tabiat, jamiki olam o`z go`zalligi-yu turli ranglari bilan birga Allohning izmi bilan yaratilgan. Xususan, ko`k rang “Toha” surasida “Qiyomat kuni iymonsizlarning yuzi rangi sifatida ta`riflangan<sup>3</sup>. Qizil rang “Fotir” surasi 27-oyatida ayrim tog`lar, mevalar rangini bildiradi<sup>4</sup>. Ranglarga tabiatshunoslik, ayniqsa, fizikada aniq ta`rif berishga urinish kuzatiladi.<sup>5</sup> Unga ko`ra:

1. Rang (fizika) – bu quyosh nuridagi ko`zga ko`rinuvchi elektromagnit to`lqinlarining tarkibiy qismi.
2. Rang – yorug`lik ta`sirida inson ko`zida uyg`onuvchi hissiyot.
3. Rang – tabiat in`omi, uning sirli mo`jizasi.

### **Tadqiqot va usullar.**

Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomlarini, hattoki, har birining ramziy ma`nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba`zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: alvon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug`doyrang, bo`z gulgun, jigarrang, zangori, za`faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko`k, lojuvard, lolarang, malla, moviy, moshrang, nafarmon, oq, pistamag`iz, pistaqi, pushti, sariq, safsar, samorang, sur, feruza, o`choq kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag`iz, qoracha qo`ng`ir, havorang, anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo`ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg`aldoq, kaptar bo`yin, ko`kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvotrang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olovrang, olmatakori, oq upa suvi, sabzirang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surmarang, tillarang, tupori to`liq, to`tiyoyi va boshqalar<sup>6</sup>. Afsuski, yillar, asrlar o`tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma`nolari hamda ularning tili yo`qolib ketish arafasiga kelib qoldi. Bu ro`yxatni davom ettirish ham mumkin. Ko`pchilik bu ro`yxatdagi ayrim ranglarning nomlarini xayoliga ham keltirolmasa kerak. Hech bir rang bir-birini takrorlamaydi. Ajdodlarimiz rangdan me`morchilik obidalarini bezash, milliy kiyimlarda, betoblarning kasalini aniqlashda, davolashda unumli foydalanganlar. Chunonchi, Shayxul — islom Ibn Taymiyaning rivoyat qilishicha, payg`ambarimiz besh xil rangli salla o`rganlar, ya`ni: oq, qora, yashil, qizil va havorang<sup>7</sup>. Qora rangli sallani ta`ziya marosimlarida, yashil sallani dushman ustidan g`alaba qilganda, oq rangli sallani masjidga borishda, qizil rangli sallani jangda, sariq sallani kasalni ko`rish uchun borishda o`rganlar.

<sup>2</sup> <https://studybible.ru/lexicon/btd/word>.

<sup>3</sup> Muftiy Abdulmatin. *Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur`an al-karim*. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 199-200.

<sup>4</sup> O`sha manba, 200-201.

<sup>5</sup> Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FINE. № 1, 2018. – C.35-40

<sup>6</sup> Ro`ziyeva M. 2017. *O`zbek xalq qo`shiqalarida rang simbolikasi: Filol.fan.nomz....diss. Toshkent:Sharq.*

<sup>7</sup> Muftiy Abdulmatin. *Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur`an al-karim*. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 199-200.

## Natijalar.

Mutaxassislar asosiy rang sifatida quyidagi 7 ta ranglarni e'tirof etishadi:

1. Sariq rang – quyosh, hayot, muqaddaslik ramziy ma'nosiga ega. Qadimgi Xitoyliklarda baxt, Yevropada, aksincha, nafratlanish ramziy ma'nosiga ega. Shuningdek, ayriliq ramzi hamdir.
2. Oq rang xosiyatlari. Oq rang – pokizalik, tozalik, yorug'lik, baxt, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishni anglatgan. Azaldan kishilarimiz yangi uyga ko'chib o'tishdan oldin uy ustunlariga va shiftiga un sepishgan. Samarqand va Buxoro viloyati to'ylaridagi rasm-rusumga ko'ra, kelinning qo'lini unga botirishadi. Bu ham momolar aqidasi ko'ra yangi kelinning kelgusi hayoti shu undek oq, sof, barakali, toza bo'lsin degan ma'noda o'tkaziladi. Jang maydonida oq bayroqning ko'tarilishi – mag'lubiyatini tan olish ma'nosini bildiradi.<sup>8</sup> Xalqimizda hammamizga tanish “oqsoqol” degan ibora bor bo'lib, ko'p bilim va tajribaga ega, donishmand, ulug' yoshdagi insonlarga nisbat berib qo'llaniladi. Yana xalqimizda “Ko'ngli oqning – dili pok” kabi rang bilan bog'liq maqollar borki, ularda oq so'zi yaxshi ma'noda ishlatiladi.<sup>9</sup>
3. Kulrang xosiyatlari. Kulrang – sovuqni his qilishga chorlashi, asabni davolashi, qon bosimini tushirishni ta'kidlaydilar.
4. Yashil rang xosiyatlari. Yashil rang – tabiatni, tabiatning uyg'onishi, bahor, ishonch ramzi. Ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodimonlik timsoli hisoblanadi. Yashil rang deyishimiz bilan xayolan bahorni eslaymiz. Yashillik yozga ham xos. Ammo bahor va yashillikni bir butun sifatida tasavvur qilish ongimizga singishib ketgan. Bu tabiatning yashil rangga kirishi, tabiatning yangilanishini bildiradi. Demak, yashil rang – yasharish rangi.
5. Qora rang xosiyatlari. Qora rang – motam, cheksizlik, qo'rquv, o'lim, noaniqlik ramzi. Qora rang ko'p o'rinlarda yovuzlik, zulmat rangi deya hisoblansa-da, mumtoz adabiyotda yorning go'zalligi, qahrining qattiqligi ham shu rang bilan ifodalanadi. Tasviriy san'at, kino, teatrdagi yovuz qahramonlar obrazini qora libos orqali ochib berish an'anasi mavjud. Masalan: xalqimizda “ichi qora odam” iborasi mavjud bo'lib, yomon niyatli, yaxshilikni kutib bo'lmaydigan, salbiy xislatlarni o'zida jamlagan kishiga aytiladi.
6. Qizil rang xosiyatlari. Qizil rang - g'alaba, xursandchilik, shodlik, tiriklik, olov va qon ramzi. U ilqlikni his qilishga chorlaydi, kayfiyatni ko'taradi, tiriklik ramzi ham sanaladi.
7. Moviy rang – tiriklik, mangu osmon, obi hayot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi. Timsollar tilida bu yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-u shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur bayrog'ining rangi ham moviy rangda bo'lgan. Shuningdek, ushbu rangni yoqtiradiganlar tabiatan samimiy, tez kirishuvchan insonlar hisoblanishadi.

## Muhokamalar.

Ranglar asosiy mazmun kasb etadigan asarlarni biz juda ko'p uchratamiz. Yuzlab, minglab hattoki undan ham ko'pdir bunday asarlarning soni. Ranglar inson hissiyatini so'zsiz ifodalab beradi. O'zbek adabiyotida rang bilan bog'liq bir nechta asarlarga to'xtalsak: taniqli yozuvchi Said Ahmadning “Qorako'z majnun” hikoyasining qahramoni Saodat aya – boshidan juda ko'p savdolar o'tgan. Umid-la kutgan farzandi dinini, dunyoqarashini unutilib butunlay boshqa odamga aylanib kelganida uning boshiga dunyolar qulaydi. Bir kechada g'am uni butunlay boshqa odamga aylantirib qo'yadi (qora sochlarining oppoq rangga kirishi). Aslida hikoyada Saodat ayaning o'g'li Bo'rixon bilan Saodat ayaning vafodor iti Qorako'z bir biriga taqqoslangan. Bo'rixon inson bo'la turib, farzand bo'la turib o'zligini, majburiyatlarini unutgan bir paytda Qorako'z oddiy it bo'lsa ham, egasiga vafodorligini isbotlaydi. Bu yerdagi qora rangning asl ma'nosi Bo'rixonning ko'nglining qoraligi, yovuzligini tasvirlaydi, aslida.

<sup>8</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. – Toshkent: Akademya nashri, 2012. - 448 b.

<sup>9</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 3-jild. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyati. 2006.- 688 b.

## **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda tasvirlanayotgan rang tasviri inson ruhiyatini ochishda muhim poetik vositalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'rnida qo'llanayotgan har rangning asar matnidagi o'rni va ko'lemi ijodkor badiiy-estetik niyati bilan uzviy bog'lanib badiiy yuksaklikni ta'minlashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda inson ruhiy iqlimlarida yuz berayotgan turfa holatlarni, o'zgarish-evrilishlarni nisbatan to'liq va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladigan rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni yangicha talqinda qo'llash yozuvchilarning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

## **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur'an al-karim. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 199-200.
2. D.Mingboyeva. Timsollar tilsimi. – Toshkent 2022;
3. R.Xudoybeidiyev. Rangshunoslik asoslari. T.: G'.G'ulom nashriyotmatbaa ijodiy uyi. 2006.
4. S.Bulatov. Rangshunoslik. O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent – 2009.
5. Said Ahmad. Qorako'z majnun. T.: O'zbekiston. 2013.
6. Boltoboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarix. Monografiya.2-jild."MUMTOZ SO'Z" 2016. 212-b.
7. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". Journal of Positive School Psychology 6.9 (2022): 4395-4398.
8. Ro'ziyeva M. 2017. O'zbek xalq qo'shiqlarida rang simbolikasi: Filol.fan.nomz....diss. Toshkent:Sharq.
9. Saidov M. Ko'k, oq, qora ranglarning eski inonchlar ila aloqasi// Ozarboyjon FA Xabarlarlari, 1978, 2-son.
10. Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FINE. № 1, 2018. – C.35-40
11. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

## **Internet saytlari:**

1. <https://studybible.ru/lexicon/btd/word>.
2. <https://kh-davron.uz/brohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>
3. <https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRAIDP/article>
4. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3791/4592>
5. <https://palacowa-aleja.pl/BWvzroTtNe/>
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.